

Bug‘doy doni sifat ko‘rsatkichlariga zararli xasvaning ta’siri**To‘raeva Saida Muratovna, b.f.f.d, k.i.x¹****Baxramova Nilufar Nazarovna q.x.f.f.d., k.i.x²**¹O‘zR FA akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti.²Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuzgi bug‘doy doni zararli xasva hasharoti bilan zararlanganlik darajasini don sifatiga ta’siri baholandi. Tadqiqot natijalarga ko‘ra, zararli xasva bug‘doy doniga kuchli zarar yetkazib, doni sifatining yomonlashishiga olib keladi

Kalit so‘zlar: don, sifati, natura, kleykovina, IDK, birlik, xasva, sog‘lom, zararlangan

Bug‘doy dunyo aholisi uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo‘lib, uning don sifati va hosildorligini saqlab qolish qishloq xo‘jaligining muhim vazifalaridan hisoblanadi. So‘nggi yillarda bug‘doy ekinlariga zarar yetkazuvchi hasharotlar, xususan zararli xasva keng tarqalib, hosil miqdori va don sifatiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Zararli xasva bug‘doy donini so‘rib oziqlanishi natijasida don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori hamda ularning sifat ko‘rsatkichlari yomonlashadi. Bu esa un va non mahsulotlari sifatining pasayishiga olib keladi [3].

Qishloq xo‘jaligida bug‘doy donining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va hosilni himoya qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zararli xasva bilan zararlangan bug‘doy donining texnologik va biokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, uning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir darajasini aniqlash hamda samarali kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [1].

O‘simlikning rivojlanish bosqichiga qarab donlarning zararli hasva bilan shikastlanishi:


-sut pishishi fazasi boshlanishidan oldin zararlanganda bujmayishlar va noaniq sariq dog‘lar ko‘rinadi;

-sut pishish bosqichida donni to‘ldirish jarayoni buziladi va u mayda, bujmayib qoladi, zichligi past bo‘lib, och sariq rangga ega bo‘ladi;

-mum pishish fazasida donning shakli o‘zgarmaydi, ba‘zan ma’lum joylarda, burishish kuzatiladi oldingi zararlanish davrlarida bo‘lgani kabi endosperm bo‘ylab tarqalmaydi, igna o‘rgandek nuqta izlar bo‘ladi;

-mum pishish fazasining oxirida yoki to'liq pishish fazasining boshlarida don lichinkalar va hasharotlar tomonidan shikastlanganda dog'lar aniq chegaralarga ega bo'ladi, nuqtalar (naycha izlari) ayniqsa shishasimon bug'doy donalarida yaqqol ko'rinadi. Barcha holatlarda dog' ostidagi hasharotlar tomonidan zararlangan donalarning mustahkamligi bo'sh bo'ladi [1].


Tadqiqotimiz davomida zararli xasvanning bug'doyni rivojlanish fazalari bo'yicha o'rganilib kelinayotgan Vassa va Grom navilari hosil yig'ib olingandan keyin don sifat ko'rsatkichlarga ham ta'siri o'rganildi. Don sifatiga ta'siri bo'yicha olingan tahlil natijalarga ko'ra, sog'lom donda Vassa navning 1000 ta don o'g'irligi 48,0 g, shishasimonligi 76,7%, kleykovina massa ulushi 27,6%, oqsil miqdori 15,3% va IDK 97,0 sh.b. tashkil qildi (3 jadval). Grom navi 1000 ta don o'g'irligi 43,3 g, shishasimonligi 68,5%, kleykovina massa ulushi 24,5%, oqsil miqdori 14,9% va IDK 84,7 sh.b. tashkil qildi.



1-pacm. Vassa navi doni sifat ko'rsatkichlariga zararli xasvanning ta'siri (2025 yil).

Zararli xasva bilang shikastlangan donlar sog'lom donlarga nisbatan navlar bo'yicha Vassa navi 1000 ta don o'g'irligi 7,9 g, shishasimonlik 12,4%, kleykovina massa ulushi 6,6%, oqsil miqdori 3,2 %, Grom navi 1000 ta don o'g'irligi 6,9 g, shishasimonlik 7,2%, kleykovina massa ulushi 5,1%, oqsil miqdori 1,1 foizga pasayganligi kuzatildi.

Bug‘doy donining kleykovina sifati ya’ni IDK birligiga ta’siri bo‘yicha olingan natijalar tahlil qilinganda sog‘lom donda IDK birligi Vassa navida 97,0.ni, Grom navida 84,7.ni tashkil etdi. Shikastlanmagan donlarda kleykovina sifati ya’ni IDK birligi Vassa navida 129,6.ni, Grom navida 123,3.ni tashkil etgan holda, O‘zDSt 880:2015 davlat standarti talablarini bo‘yicha 4-5 sinflarga javob berdi. Ushbu zaralangan donlardan nooziq-ovqat maqsadlarda foydalanish mumkin.



1-pacm. Grom navi doni sifat ko‘rsatgichlariga zararli xasvaning ta’siri (2025 yil).

Xulosa qilib aytganda, zararli xasva bug‘doy doniga kuchli zarar yetkazib, doni sifatining yomonlashishiga olib keladi. Shu bois dala kuzatuvlarini yanada kuchaytirish, zararkunandalardan himoya qilish uchun vaqtida va samarali kurash choralari qo‘llash muhim agrotexnik tadbirlardan hisoblanadi. Bu esa mo‘l va sifatli hosil olinishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimuxamedov S.S., Hakimov A.Ya. (2004) Zararli xasvani (Eurygaster integriceps Put.) bug‘doyga zarar keltirishi. O‘zbekistonda bug‘doy seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish texnologiyasiga bag‘ishlangan birinchi milliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent, b. 350-351.
2. Babaxonova M., Alimuxamedov S., Sagdullaev A. Zararli xasva (2016). “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnalining ilmiy ilovasi. Toshkent, 2. – b. 23.
3. Muxammadaliev Sh., Sulaymonov B., Rashidov M. Ekinlar zararli organizmlari rivojlanishi va tarkalishining bashorati: (Uslubiy ko‘llanma). T.: 2002. - B.50- 52.